

“MA’QULLANGAN”

“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat banki
Boshqaruvining
2024-yil “19” avgust dagi
188-1-sonli qarori bilan

“TASDIQLANGAN”

“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat banki
Kuzatuv kengashi majlisining
2024-yil “7” sentabr dagi
31-sonli bayonnomasi bilan

Boshqaruv raisi v.b



O. Butayev
M.O'. 

Raislik qiluvchi



B. Musayev
M.O'. 

**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining
Tavakkalchiliklarni boshqarish qo‘mitasi to‘g‘risida
Nizom
(yangi tahrirda)**

Toshkent – 2024-yil

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Banklar va Bank faoliyati to'g'risida", "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" Qonunlari, "Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risida" (ro'yxat raqami 3254, 2020-yil 30-iyun), "Markaziy Bank tomonidan tijorat Banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida" (ro'yxat raqami 916, 2000-yil 5-aprel), "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida" (ro'yxat raqami 3427, 2023-yil 18-aprel) Nizomlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining (keyingi o'rinlarda – Bank) Ustavi va boshqa ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Nizom Tavakkalchiliklarni boshqarish qo'mitasining (keyingi o'rinlarda – Qo'mita) vazifa va vakolatlari, majburiyatlari, ish tartibi, majlislar davriyligi, Kuzatuv kengashiga hisobotlar taqdim qilish tartibi va boshqa faoliyat asoslarini belgilaydi.

3. Qo'mita Bankda tavakkalchiliklarni samarali boshqarish maqsadida tashkil etilgan.

4. Qo'mita Bank Kuzatuv kengashiga hisobdor bo'lib o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Bank Ustavi va ushbu Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

5. Qo'mitaning asosiy vazifasi vakolat doirasida masalalarni chuqur o'rganish hamda ular bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish, shuningdek, Bank Kuzatuv kengashining nazoratga doir vazifalarini bajarishida unga ko'maklashish hisbolanadi.

Qo'mita Bank Kuzatuv kengashi qarorlarining ijrosi, Bank strategiyasi va maqsadlarining bajarilish jarayonini tahlil qiladi, Bank faoliyatiga oid muntazam hisobotlar va o'z tavsiyalarini Bank Kuzatuv kengashiga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi.

2-bob. Qo'mitaning vazifa va vakolatlari

6. Qo'mitaning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

tavakkalchiliklarni boshqarish masalalari va ichki nazoratga doir hujjatlar, shu jumladan, tavakkalchiliklarni boshqarishning tashkiliy tuzilmasi, tavakkalchiliklarni boshqarish strategiyasi va siyosati, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va odob-axloq bo'yicha ichki hujjatlarni ko'rib chiqish, Bank Kuzatuv kengashiga tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga oid tavsiyalarni kiritish;

Boshqaruv va Risk menejment departamenti tomonidan tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi, shu jumladan, risk-appetit va tavakkalchiliklarni boshqarish siyosatining ishlab chiqilishi, ularga rioya etilishi va ularning o'z vaqtida yangilab borilishi ustidan nazorat qilish;

Bank tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan tavakkalchiliklarni baholash, shu jumladan, stress-test qilish uslublarini (metodologiyasini) davriy ravishda ko'rib chiqish;

Bank Kuzatuv kengashiga taqdim etiladigan tavakkalchiliklarga oid ma'lumotlarning (hisobotlarning) tuzilishi va shakli hamda ularni taqdim etish muddatlarini belgilash;

Bankning tavakkalchiliklar sohasi (risk-profil) tasdiqlangan risk-appetitga mos emasligi yoki me'yordan chiqib ketishi kutilayotgan holatlarda, tavakkalchiliklarning minimallashtirilishi va ular yuzasidan o'z vaqtida choralar ko'rilishi bo'yicha qarorlar qabul qilish to'g'risida Bank Kuzatuv kengashiga takliflar berish;

Bankning mukofotlash tizimi Bankning risk-appetitga muvofiqligini o'rganib borish;

tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha mas'ul bo'lgan xodimlarning, jumladan Risk menejment departamenti xodimlarining Boshqaruv va tavakkalchiliklarni qabul qiluvchi boshqa tarkibiy bo'linmalardan mustaqilligini baholab borish;

kredit, likvidlilik, bozor va operatsion tavakkalchiliklar bo'yicha, jumladan Bankda mavjud yoki yuzaga kelishi kutilayotgan tavakkalchiliklar hamda ularni kamaytirish yuzasidan Risk menejment departamenti hisobotlarini har chorakda kamida 1 (bir) marta qabul qilish, muhokama qilish va tavakkalchiliklarni minimallashtirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish;

Risk menejment departamenti tomonidan ishlab chiqilgan stress-testlar va tavakkalchilik xususiyatlari asosida Bank kapitaliga nisbatan tabaqalashtirilgan talablarni belgilash bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish;

komplaens tavakkalchiligini boshqarishga mas'ul tarkibiy bo'linma tomonidan xabar qilingan Bank tashkiliy tuzilmasining barcha bo'g'inlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq tavakkalchiliklarni boshqarish, manfaatlar to'qnashuvi mavjudligidan dalolat beruvchi aniqlangan holatlarni ko'rib chiqish;

komplayens tavakkalchiligini boshqarishga mas'ul tarkibiy bo'linmalarning hisobotlarini har chorakda kamida 1 (bir) marta muhokama qilish;

Risk menejment departamenti direktori faoliyatini baholash jarayonida qatnashish yoki fikr bildirish;

o'z faoliyati to'g'risida choraklik hisobotlarni tayyorlash;

Bank operatsiyalarini amalga oshirishda yuzaga keladigan barcha turdagi tavakkalchiliklarni samarali boshqarish faoliyatini tashkillashtirish;

Bank Kuzatuv kengashi tomonidan yuklatilgan boshqa vazifalarni bajarish.

7. Qo'mita o'z faoliyati davomida quyidagi masalalarni ko'rib chiqish va amalga oshirish vakolatiga ega:

Bankning Risk menejment departamenti tuzilmasi va tarkibi bo'yicha Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvga tavsiyalar taqdim etish;

Bankda tavakkalchilikni samarali boshqarishni tashkil etish maqsadida Risk menejment departamenti xodimlari rotatsiyasini amalga oshirish va malakasini muntazam oshirib borish yuzasidan Boshqaruvga takliflar kiritish;

Risk menejment departamenti to'g'risidagi Nizomni, unga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritishni tasdiqlash yuzasidan Kuzatuv kengashiga tavsiyalar berish;

Risk menejment departamenti faoliyatini to'g'ri tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha Boshqaruv bilan to'g'ridan-to'g'ri hamkorlik qilish;

Bank strategiyasini ishlab chiqishda, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishda ishtirok etish, shu jumladan Bank Kuzatuv kengashiga Bank strategiyasini ishlab chiqishda Bankning tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini rivojlantirish bo'yicha tegishli tavsiyalar berish;

Bankda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklar bo'yicha ma'lumotlarni o'zaro almashish, shuningdek, tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritish bo'yicha choralarni ko'rish maqsadida Qo'mita va Audit qo'mitasi o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish;

qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish, shuningdek, Bank Kuzatuv kengashining Qo'mita faoliyatidagi vazifalarni hal etishga ko'rsatmalarini bajarish.

3-bob. Qo'mitaning tarkibi va uni shakllantirish tartibi

8. Qo'mita a'zolari Bank Kuzatuv kengashining 3 (uch) nafar a'zosidan tashkil topadi.

9. Qo'mitaning tarkibi Bank Kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlanadi.

10. Qo'mita tarkibiga uning raisi va a'zolari Bank Kuzatuv kengashi raisi tavsiyasi bilan kiritiladi.

11. Qo'mita tarkibi va a'zolariga cheklovlar:

Qo'mita boshqa qo'mita a'zolidagi bo'lgan aynan bir shaxslar tarkibidan iborat bo'lishi mumkin emas;

Bank Kuzatuv kengashining bir a'zosi bir vaqtning o'zida turli qo'mitalar raisi bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi;

Qo'mitaning ko'pchilik a'zolari bankka aloqador shaxslar bo'lmasligi kerak, bundan ularning bank Kuzatuv kengashdagi a'zoligi mustasno;

Qo'mita raisi Bank Kuzatuv kengashi raisi bo'lmasligi lozim.

12. Qo'mitaning a'zolariga qo'yilgan talablar:

Qo'mita a'zolari oliy ma'lumotga ega bo'lishlari kerak;

Qo'mitaning kamida bitta a'zosi bank-moliya tashkilotlarida tavakkalchiliklarni boshqarish sohasi bo'yicha kamida 5 yillik tajribaga ega bo'lishi kerak.

13. Bank Kuzatuv kengashi a'zosi bo'lgan, Qo'mitaga saylangan shaxslar cheklanmagan miqdorda qayta saylanishlari mumkin.

14. Bank Kuzatuv kengashi raisi yoki Qo'mita raisi zaruriyatga ko'ra, Qo'mitaning tarkibiga istalgan vaqtda o'zgartirishlar kiritishni tashabbus qilish huquqiga ega.

4-bob. Qo'mita a'zolarining vakolatlari muddati

15. Qo'mita a'zolarining vakolatlari muddati Bank Kuzatuv kengashining qarori bilan belgilanadi.

16. Bank Kuzatuv kengashi Qo'mita tarkibini tasdiqlash to'g'risidagi qaroriga asosan, Qo'mitaning barcha yoki alohida a'zolarining vakolatlari muddatini belgilash huquqiga ega.

17. Agar Qo'mita a'zolarining vakolatlari muddati Bank Kuzatuv kengashining qarori bilan belgilanmagan bo'lsa, Qo'mita a'zolarining vakolatlari amalga oshirish uchun bu muddat Bank Kuzatuv kengashi a'zosi sifatidagi vakolati

muddatiga qadar amal qiladi, Qo'mitaning barcha yoki alohida a'zolarining muddatidan ilgari tugatilgan hollar bundan mustasno.

18. Qo'mitaning barcha yoki alohida a'zolarining vakolatlari quyidagi hollarda muddatidan ilgari tugatilishi mumkin:

Qo'mita a'zosining o'z iltimosi (arizasi)ga binoan;

Qo'mita a'zosining Bank Kuzatuv kengashi a'zosi sifatida vakolati muddatidan ilgari tugatilganda;

Bank Kuzatuv kengashining qaroriga muvofiq Qo'mita a'zosining vakolati muddatidan ilgari tugatilganda;

Bank Kuzatuv kengashining yangi tarkibi saylanishi munosabati bilan.

19. Qo'mitaning barcha yoki alohida a'zolarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilishi Bank Kuzatuv kengashi qarori bilan rasmiylashtiriladi.

5-bob. Qo'mita a'zolarining huquq va majburiyatlari

20. Qo'mita a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

Qo'mita majlislari kun tartibidagi masalalarni muhokama qilishda faol ishtirok etish;

Qo'mita majlislarining kun tartibidagi har bir masala bo'yicha qaror qabul qilinishida ovoz berish;

Qo'mita majlislarida shaxsan qatnashish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, Qo'mita majlislarida qatnashish va/yoki ushbu Nizomda nazarda tutilgan boshqa usullar bilan qarorlar qabul qilish;

Bank Kuzatuv kengashi, Boshqaruv va Bankning tegishli tarkibiy bo'linmalaridan Qo'mita vakolati va vazifalari doirasida har qanday masala bo'yicha to'liq, asosli fikrni shakllantirish uchun zarur va yetarli darajada ma'lumot va hujjatlarni so'rash;

Qo'mita tomonidan ko'rib chiqiladigan har qanday masalalar bo'yicha o'zining alohida fikrini bildirish va uning alohida fikrini Qo'mita majlisi bayonnomasida aks ettirishni va ularni Qo'mitaning qarori (tavsiyalari) bilan birgalikda Bank Kuzatuv kengashiga taqdim etishini talab qilish;

o'zining asosiy vazifalari va vakolatlariga mos keladigan masalalarni Qo'mita tomonidan ko'rib chiqilishiga taklif kiritish;

zarur hollarda Qo'mita vakolati va vazifalariga kiruvchi masalalar bo'yicha maxsus bilimga va ko'nikmaga ega bo'lgan uchinchi shaxslarni mutaxassis (maslahatchi) sifatida jalb qilish;

qonunchilikka muvofiq Qo'mita a'zolari boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

21. Qo'mita a'zolari quyidagilarga majburdir:

Qo'mita majlislarida qatnashish va Qo'mita kun tartibidagi masalalarni muhokama qilishda faol ishtirok etish;

Qo'mita majlislarida shaxsan qatnashish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, Qo'mita majlislarida qatnashish va/yoki ushbu Nizomda nazarda tutilgan boshqa usullar bilan qarorlar qabul qilish;

Qo'mita majlisida taqdim etilgan metariallar va hujjatlar bilan bilan tanishish va ularni o'rganish;

Qo'mita majlislarida kun tartibi masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilinishida ovoz berish;

Qo'mita majlisining kun tartibida muhokama qilinayotgan masalalar bo'yicha shaxsiy manfaatdorligi mavjudligi to'g'risida Qo'mitaning boshqa a'zolarini darhol xabardor qilish;

Qo'mita majlisining kun tartibidagi masalalarni ko'rib chiqish va qarorlar qabul qilish vaqtida manfaatlar to'qnashuvi holatlari haqida Qo'mita va Bank Kuzatuv kengashining boshqa a'zolarini darhol xabardor qilish;

o'z vazifalarini bajarishda Bankka zarar yetkazish yoki boshqa zarar yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslik, shuningdek bunday harakatlar va bayonotlardan tiyilish;

Bank tizimida Bank siri va tijorat siriga oid ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik talablariga rioya etgan holda sir saqlanishini ta'minlash;

qonunchilikka muvofiq Qo'mita a'zolariga boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

6-bob. Qo'mita raisiga qo'yiladigan talablar va uning vakolatlari

22. Qo'mita raisi Qo'mita ishiga rahbarlik qiladi va uning Bank Kuzatuv kengashi bilan munoasabatlarini muvofiqlashtiradi.

23. Qo'mita raisi yetakchilik fazilatlarini, kuchli muloqot ko'nikmalarini egallashi va namoyish qilishi, o'z vazifasi va majburiyatlarini bilishi va tushunishi kerak.

24. Qo'mita raisining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

Qo'mita ishini umumiy boshqarish va tashkil etish;

Qo'mita majlislarining kun tartibini tasdiqlash;

Qo'mita majlislarini chaqirish;

Qo'mita majlislarida raislik qilish va masalalar muhokamasini tashkil etish;

Qo'mita majlislarining kun tartibidagi masalalarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Bank Kuzatuv kengashiga tavsiyalarni taqdim etish;

Bank Kuzatuv kengashi qarorlari bilan belgilangan boshqa vakolatlarni amalga oshirish va Qo'mita nomidan hujjatlarni imzolash.

7-bob. Qo'mita ish tartibi va majlislari

25. Qo'mita majlislari zaruratga qarab yoki Qo'mita majlislari jadvaliga muvofiq, lekin har chorakda kamida 1 (bir) marta o'tkaziladi.

26. Qo'mita majlisi Qo'mita raisi yoki u bo'lmagan taqdirda uning o'rnini egallash huquqiga ega bo'lgan shaxs, Boshqaruv raisi yoki uning o'rnini bosuvchi shaxs, zarur hollarda Boshqaruvning boshqa a'zolari, Risk menejment departamenti direktori yoki uning o'rnini bosuvchi shaxs, shuningdek Bank Kuzatuv kengashi yoki Qo'mita a'zosi talabiga binoan chaqirilishi mumkin.

27. Qo'mita majlisida Qo'mita a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan bo'lsa, majlis kun tartibidagi masalalarni ko'rib chiqish va ular yuzsidan qarorlar qabul qilish vakolatiga (kvorumga) ega bo'ladi.

28. Qo'mita a'zolari Qo'mita majlislarida baland ovozli video yoki telefon aloqasi yoki boshqa ajratilgan kanallari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Biroq,

bu holatda ishtirok etish tizimi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

tizimga ulanish usullari Qo'mita a'zosining shaxsini ishonchli aniqlashga imkon berishi;

Qo'mita a'zosi tomonidan taqdim etilgan ovoz aniqlik bilan qayd etilishi;

Qo'mitaning har bir qarori uchun ovoz berishda Qo'mita a'zosi majlis kun tartibdagi biron-bir masala bo'yicha o'z fikrini bildirish va real vaqt rejimida uning muhokamasida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishi;

shuningdek davlat, tijorat, Bank va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirlarning saqlanishini ta'minlashi.

29. Qo'mita a'zolarining Qo'mita majlisida shaxsan yoki ushbu Nizom 28-bandida nazarda tutilgan boshqa usullar bilan ishtirok etish imkoni bo'lmasa, Qo'mita a'zosi Qo'mita raisi bilan kelishilgan holda oldindan yozma ravishda (byulletenni to'ldirish yoki boshqa tarzda) Qo'mitaning tegishli majlisi kun tartibiga kiritilgan masala bo'yicha ovoz berish huquqiga ega.

Qo'mita a'zosining ilgari berilgan ovozlari ushbu majlisda qatnashgan Qo'mita a'zolarining ovozlari hosoblashda hisobga olinadi, agar ushbu ovoz ushbu majlisda qatnashgan Qo'mitaning qolgan a'zolarining fikriga binoan bir ovozli va asosli ravishda berilgan bo'lsa. Qo'mita qarorlarini qabul qilishda bunday ishtirok etishga Qo'mita a'zolarining kamida uchdan ikki qismi shaxsan qatnashgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

30. Zarur bo'lganda, Bank Kuzatuv kengashining boshqa a'zolari, Boshqaruv a'zolari, boshqa tarkibiy bo'linmalari xodimlari Qo'mita majlislariga ovoz berish huquqsiz taklif qilinishi mumkin.

31. Qo'mitaga rahbarlik qilish va faoliyatini tashkil etish Qo'mita raisi tomonidan amalga oshiriladi. Qo'mita raisi bo'lmaganda uning vazifasini Qo'mita a'zolaridan biri amalga oshiradi.

32. Qo'mitaning har bir a'zosi bitta ovozga ega. Qo'mitaning har bir a'zosi faqat o'zi uchun ovoz berishi mumkin va uning ovozidan foydalangan holda Qo'mitaning boshqa a'zosi nomidan ovoz berish taqiqlanadi. Ovozlar teng kelgan taqdirda, Qo'mita raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

33. Qo'mitaning qarorlari ochiq ovoz berish orqali Qo'mita a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlarni sanash, ularni aniqlash va ovoz berish natijalarini aks ettirish Qo'mita majlisi kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

34. Alohida hollarda, Qo'mitaning qarorlari sirtidan ovoz berish orqali qabul qilinishi mumkin. Qo'mitaning sirtidan ovoz berish orqali qaror qabul qilish imkoniyati Qo'mita raisi tomonidan alohida holatlarda va ko'rib chiqilayotgan masalalarning dolzarbligi darajasini va ularni tezkor ko'rib chiqilishini hisobga olgan holda Qo'mita a'zolari bilan kelishilgan holda belgilanadi.

35. Qo'mitaning sirtidan ovoz berish orqali qabul qilingan qarori, kun tartibidagi masalalar bo'yicha Qo'mita a'zolarining umumiy soniga va ular bo'yicha ovoz berish natijalariga ko'ra, Qo'mita raisi tomonidan (qog'ozda yoki elektron tarzda) olingan ovoz berish byulletenlari hisobga olingan kvorum bo'lsa, qabul qilingan ovoz deb hisoblanadi. Belgilangan muddat tugagandan so'ng olingan ovoz berilmagan hisoblanadi va ovoz berish byulletenlari ovoz berish kvorumini va ovoz berish natijalarini hisoblashda hisobga olinmaydi.

36. Bank Boshqaruv a'zolari, Risk menejment departamenti va boshqa tarkibiy bo'linmalari xodimlari Qo'mitaga yordam ko'rsatishi, shuningdek o'z vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha Qo'mitaning ko'rsatmalarini bajarishi shart.

37. Boshqaruv va Bank Bosh ofisi tarkibiy bo'linmalarining Qo'mitaga murojaatlari odatda Bank Kuzatuv kengashi kotibiyati orqali taqdim etiladi.

38. Qo'mitaning qaror, topshiriq va boshqa murojaatlari tegishli bank Boshqaruvi va boshqa tarkibiy bo'linmalariga Kuzatuv kengashi kotibiyati orqali yoki zarur hollarda to'g'ridan-to'g'ri yetkaziladi.

39. Qo'mita majlislarida Bank Kuzatuv kengashi kotibiyati xodimlaridan biri kotiblik qiladi va majlis kotibi Qo'mita majlislarida ovoz berish huquqisiz ishtirok etadi. Zaruratga ko'ra, Qo'mita majlis boshlanishida Bankning boshqa tarkibiy bo'linmasi xodimlaridan birini kotib etib saylashi mumkin.

8-bob. Qo'mita majlislarining qarorlari

40. Qo'mitaning majlisida qabul qilingan qarorlar majlis bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

41. Qo'mita majlisi bayonnomasi Qo'mita kotibi tomonidan besh ish kunida tuziladi va majlisga raislik qilgan shaxs, Qo'mita a'zolari va kotibi tomonidan imzolanadi.

42. Qo'mita majlisining bayonnomasi ushbu majlisda qatnashgan Qo'mita a'zolari bilan tanishtirilishi va ularning roziliklarini olish uchun tasdiqlanishi kerak. Qo'mita majlisi bayonnomasining bunday tasdiqlanishi elektron aloqa vositasida, shuningdek Qo'mitaning keyingi majlisida amalga oshirilishi mumkin.

43. Agar Qo'mita a'zosi Qo'mita majlisida qabul qilingan qaroriga rozi bo'lmasa, u o'zining alohida fikrini ushbu majlis bayonnomasida aks ettirishi yozma ravishda talab qilishga haqlidir, bunda ushbu Qo'mita a'zosining yozma so'rovini majlisning tegishli bayonnomasiga majburiy ilova hisoblanadi.

44. Qo'mita majlisining bayonnomasida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:
majlis sanasi, vaqti va joyi;
majlisda ishtirok etgan Qo'mita a'zolari va shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar;
majlis kun tartibi;
majlis qatnashchilari tomonidan ovozga qo'yilgan Qo'mita qarorlarining matni;

majlis qatnashchilarining ovoz berish natijalari (ushbu majlis ishtirokchilarini "yoqlayman", "qarshiman", "betarafman" variantlari bo'yicha ovoz berganlarni aniqlashga imkon beradigan ma'lumotlar ko'rsatilgan holda);

Qo'mitaning qabul qilingan qarorlari matni;

Qo'mita qaroriga binoan boshqa ma'lumotlar.

45. Qo'mitaning sirdan ovoz berish orqali qabul qilingan qarori yozma shaklda rasmiylashtiriladi, unga Qo'mita raisi va Qo'mita kotibi imzo chekadi, shuningdek, ular taqdim etgan sirdan ovoz berish byulletenlarida yoki boshqacha tarzda o'z pozitsiyalarini bildirgan Qo'mita a'zolari tomonidan tasdiqlanadi.

46. Qo'mita tomonidan qabul qilingan qarorlar (tashqi majlislar yoki sirdan ovoz berish) asosida, ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha Qo'mitaning yozma tavsiyalari tuzilishi mumkin, ular Bank Kuzatuv kengashiga taqdim etilishi kerak.

Qo'mitaning bunday tavsiyalari Bank Kuzatuv kengashida ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha Qo'mitaning fikrini aks ettiradi va mazkur tavsiyalar obyektiv va asoslantirilgan bo'lishi kerak.

47. Qo'mita majlislarining bayonnomalari, shuningdek sirtidan ovoz berish byulletenlari va boshqacha tarzda ovoz berish ma'lumotlari Bank Kuzatuv kengashi kotibiyati tomonidan saqlanadi. Boshqaruv Qo'mita majlislari bayonnomalarining xavfsiz saqlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, Kuzatuv kengashi kotibiyati esa Qo'mita tomonidan qabul qilingan qarorlar nusxalari, ovoz berish byulletenlari, bayonnomalar jurnali, Qo'mita majlislari bayonnomalaridan ko'chirmalar berish uchun javobgardir.

9-bob. Qo'mita faoliyati samaradorligini baholash

48. Bank Kuzatuv kengashi tomonidan Qo'mitaning har bir a'zosining samaradorligini yiliga kamida bir marotaba Qo'mitaning o'tgan davrdagi faoliyatini baholash maqsadida ko'rib chiqadi.

10-bob. Qo'mita a'zolariga mukofotlar

49. Qo'mita a'zolariga to'lanadigan haq miqdori Bankning ichki hujjatlariga muvofiq belgilanadi va to'lanadi.

11-bob. Qo'mita faoliyati to'g'risidagi hisobot

50. Qo'mita har chorakda Bank Kuzatuv kengashiga o'zining faoliyat natijalari to'g'risidagi hisobotini taqdim etadi.

51. Qo'mita hisoboti muhokama qilingan masalalar, tasdiqlangan ish rejaning bajarilishi va Bank Kuzatuv kengashi topshiriqlarining ijro etilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

52. Qo'mita hisobotni Bank Kuzatuv kengashiga Qo'mita raisi nomidan yoki Qo'mita tomonidan tayinlangan boshqa a'zo nomidan yozma yoki og'zaki ma'ruzalar shaklida bo'lishi mumkin.

12-bob. Yakuniy qoidalar

53. Ushbu Nizom Kuzatuv kengashining qarori bilan tasdiqlanib, o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

54. Ushbu Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar Bank Kuzatuv kengashi qarori bilan kiritiladi. Mazkur o'zgartirish va qo'shimchalar o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

55. Ushbu Nizom kuchga kirgan kundan boshlab Bank Kuzatuv kengashi majlisining 2021-yil 13-avgustdagi 7-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining "Tavakkalchilikni boshqarish qo'mitasi to'g'risida" Nizomi o'z kuchini yo'qotadi.

56. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda, mazkur Nizomga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar amaldagi qonunchilik talablariga rioya etiladi.

57. Bankning tashkiliy tuzilishi o'zgartirilishi munosabati bilan mazkur Nizomda keltirilgan tarkibiy bo'linmalar qisqartirilgan, vazifalari va majburiyatlari o'tkazilgan yoki nomlari o'zgargan holatlarda, ushbu tarkibiy bo'linmalarga taalluqli Nizom qoidalari ularning vazifalari va majburiyatlari o'tkazilgan (voris) tarkibiy bo'linmalar tomonidan amalga oshiriladi.

58. Ushbu Nizom shartlarini buzganlikda aybdor shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi ar.

«MIKROKREDITBANK» ATB
METODOLOGIYA BOSHQARMASI
II 2018 yil 12 o'laydi
2018 yil 12 o'laydi
Imzo

[Handwritten signatures]